



THE “TALIBAN” FACTOR IN THE MODERN FOREIGN POLICY OF INDIA: INTERESTS AND THREATS

Shoislom Akmalov

Associate Professor at the International Islamic Academy of Uzbekistan

Candidate of Political Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: “Bilateral cooperation” agreement, “Tehrik-e-Taliban Pakistan,” Zaranj-Dilorom highway, ISIS, “Al-Qaeda,” “inclusive government.”

Received: 04.04.26

Accepted: 05.04.26

Published: 06.04.26

Abstract: This article is devoted to the analysis of the role and significance of the Taliban factor in India's modern foreign policy. The article also examines how the Taliban's rise to power in Afghanistan has affected India's regional political strategy, as well as the political, economic, and security interests associated with this process. The article analyzes India's approaches to maintaining cooperation with Afghanistan, ensuring regional stability, and combating the threats of terrorism and extremism. The possibilities and threats created by the "Taliban" factor in India's foreign policy are also scientifically illuminated. The results of the study reveal India's pragmatic and cautious foreign policy towards Afghanistan and its role in regional geopolitical processes.

HINDISTONNING ZAMONAVIY TASHQI SIYOSATIDA “TOLIBON” OMILI: MANFAATLAR VA TAHLIKALAR

Shoislom Akmalov

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti

siyosiy fanlar nomzodi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Ikki tomonlama hamkorlik” shartnomasi, “Tahrik-e-Tolibon Pokiston”, Zaranj-Dilorom avtomagistrali, ISHID, “Al-Qoida”, “inklyuziv hukumat”.

Annotatsiya: Mazkur maqola Hindistonning zamonaviy tashqi siyosatida “Tolibon” omilining o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Shuningdek, maqolada

Afg‘onistonda “Tolibon” harakatining hokimiyatga kelishi Hindistonning mintaqaviy siyosiy strategiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatgani, shuningdek ushbu jarayon bilan bog‘liq siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik manfaatlarini o‘rganiladi. Maqolada Hindistonning Afg‘oniston bilan hamkorlikni saqlab qolish, mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash hamda terrorizm va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashish borasidagi yondashuvlari tahlil etiladi. Shuningdek, “Tolibon” omilining Hindiston tashqi siyosatida yuzaga keltirayotgan imkoniyatlar va tahlikali jihatlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijasida Hindistonning Afg‘onistonga nisbatan olib borayotgan pragmatik va ehtiyotkor tashqi siyosati hamda uning mintaqaviy geosiyosiy jarayonlardagi o‘rni ochib beriladi.

ФАКТОР «ТАЛИБАНА» ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ СОВРЕМЕННОЙ ИНДИИ: ИНТЕРЕСЫ И УГРОЗЫ

Шоислом Акмалов

Доцент Международной исламской академии Узбекистана

Кандидат политических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: “Двустороннее сотрудничество,” “Техрик-э-Талибан Пакистан,” автомагистраль Зарандж-Дилором, ИГИЛ, “Аль-Каида,” “инклюзивное правительство.”

Аннотация: Данная статья посвящена анализу роли и значения фактора "Талибан" во внешней политике современной Индии. В статье также рассматривается, как приход к власти "Талибана" в Афганистане повлиял на региональную политическую стратегию Индии, а также политические, экономические и безрепутные интересы, связанные с этим процессом. В статье анализируются подходы Индии к поддержанию сотрудничества с Афганистаном, обеспечению региональной стабильности и борьбе с угрозами терроризма и экстремизма. Также с научной точки зрения освещаются возможности и угрозы, создаваемые фактором "Талибан" во внешней политике Индии. В результате исследования

раскрывается прагматичная и осторожная внешняя политика Индии в отношении Афганистана и ее роль в региональных геополитических процессах.

Kirish. XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mintaqasining strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, 2021-yilda Afg'onistonda "Tolibon"ning hokimiyatni qayta egallashi mintaqaviy xavfsizlik, siyosiy barqarorlik hamda davlatlarning tashqi siyosiy strategiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayon nafaqat Afg'oniston ichki siyosatiga, balki qo'shni davlatlar va mintaqaviy kuch markazlari manfaatlariga ham bevosita ta'sir etmoqda. Jumladan, Hindiston uzoq yillar davomida Afg'oniston bilan siyosiy, iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirib kelgan muhim mintaqaviy aktor hisoblanadi. Hindiston tashqi siyosatida Afg'oniston muhim geostrategik hudud sifatida qaraladi. Hindiston tashqi siyosatining afg'on yo'nalishi nafaqat Janubiy Osiyodagi xavfsizlik manfaatlari, balki Markaziy Osiyodagi strategik maqsadlari uchun ham eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Nyu-Dehli Afg'onistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishi va barqaror, barqaror va betaraf afg'on davlatini shakllantirishdan manfaatdor. Ushbu ustuvorliklarga asoslanib, Hindiston bir tomondan Afg'oniston bilan faol hamkorlikka, ikkinchi tomondan esa boshqa yirik mintaqaviy kuchlar – Pokiston va Xitoyning Afg'oniston tinchlik jarayonidagi ishtirokini hisobga olgan holda tashqi siyosat yuritadi.. Mazkur mavzuni tadqiq etish Hindiston tashqi siyosatining evolyutsiyasini, uning mintaqaviy strategiyasini hamda Janubiy va Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarga ta'sirini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqolada afg'onshunos olimlar va ekspertlar xulosalariga, shuningdek, ingliz tilidagi internet nashrlariga alohida e'tibor qaratildi. Adabiyotlar tahlilida Hindistonning "Tolibon" birinchi va ikkinchi ma'muriyati bilan aloqalari davrlar kesimida o'zaro taqqoslangan holda o'rganib chiqildi. Maqolada tarixiylik, event, content, qiyosiy hamda SWOT tahlil usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Hindiston-Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar uzoq tarixga ega bo'lish barobarida aloqalarda o'ziga xos ijobiy va salbiy davrlar bilan e'tiborga molik. 1950-yilda Afg'oniston bilan "Ikki tomonlama hamkorlik" shartnomasini imzolagan. Shuningdek, Sovet Ittifoqining Afg'onistonga bostirib kirishi paytida Hindiston Sovet Ittifoqini mujohidlarni qo'llab-quvvatlashiga qarshi munosabatda bo'lgan. 1996-2001-yillar oralig'ida Afg'onistonda hukmronlik qilgan "Tolibon" bilan aloqalar uzilgan edi. Chunki, Hindiston "toliblar"ni tashkil

etilgani hamda Afg‘onistondagi Kashmir jangarilari uchun “Tolibon” tomonidan xavfsiz boshpana berilishi bilan bog‘liq muammolar yuzaga chiqqan edi. Shu sababli ham 2001-yilda “Tolibon” rejimi qulaganida, Hindiston darhol yangi tashkil etilgan Afg‘oniston hukumati bilan munosabatlarni o‘rnatib, dastlab, Kobulda o‘z elchixonasini, keyin Mozori-Sharif, Jalolobod, Hirot va Qandahorda konsulliklarini ochdi va Afg‘oniston bilan diplomatik aloqalarni tikladi. Shuningdek, 2011-yilda Hindiston va Afg‘oniston Islom Respublikasi hukumati o‘rtasida “Strategik sheriklik to‘g‘risida”gi shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra ikkala mamlakat ham siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ta‘lim va boshqa sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga kelishib oldi. Keyinchalik, ikki tomonlama uchrashuvlarda iqtisodiyot sohasida Afg‘onistondagi 116 ta shahar va qishloq loyihasida hind kapitalining ishtiroki to‘g‘risida qaror qabul qilindi va Afg‘oniston harbiy-havo kuchlarining 11 ta Mi-35 vertolyotini ta‘mirlashda hind mutaxassislarining ishtiroki to‘g‘risida umumiy qiymati 50 million dollarlik kelishuv imzolandi. Garchi Afg‘oniston Islom Respublikasi bilan aloqalar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, hukumatning zaifligi va 2021-yilda Afg‘onistonda hokimiyatning “Tolibon” qo‘liga o‘tishi Hindiston tashqi siyosatida muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Afg‘oniston masalasi bo‘yicha Nyu-Dehli deklaratsiyasida “a‘zo davlatlar Afg‘onistonda afg‘on jamiyatidagi barcha etnik, diniy va siyosiy guruhlar vakillari ishtirokida inklyuziv hukumat tuzishni muhim deb hisoblaydi” deyiladi. Inklyuzivlikka chaqiriq yangilik emas va u Rossiya, Xitoy yoki boshqa qo‘shni yoki mintaqaviy davlatlar manfaatlariga xos emas. Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi AQShning sobiq Prezidenti Jo Bayden bilan muloqotida ham Afg‘onistonda “inklyuziv hukumat”ni shakllantirish muhimligi ta‘kidlangan. Shunga qaramay, Hindiston Afg‘oniston bilan aloqalarni butunlay uzmasdan, ehtiyotkor va pragmatik siyosat olib bormoqda. Hindiston gumanitar yordam ko‘rsatish, diplomatik vakolatxonasining cheklangan faoliyatini tiklash va xalqaro tashkilotlar orqali Afg‘oniston bilan aloqalarni saqlab qolish siyosatini yuritmoqda. Chunki, Hindistonning Afg‘onistondagi tashqi siyosiy strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashdir. Qolaversa, Hindiston uchun Afg‘oniston hududida radikal va terroristik guruhlarining faoliyati kuchayishi katta xavf hisoblanadi.

Xavfsizlik. Qayd etish joizki, Hindiston uchun Afg‘onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, “Tolibon” yuritayotgan tashqi va ichki siyosat xavfsizlik nuqati nazaridan har doim dolzarb ahamiyat kasb etib keladi. Shu bilan birga, “Tolibon”ning hokimiyatga kelishi Nyu-Dehli uchun yangi siyosiy vaziyatni yuzaga keltirdi. Bir tomondan, rasmiy Nyu-Dehli “toliblar” bilan aloqalarni saqlab qolish orqali mintaqadagi manfaatlarini himoya qilishga harakat qilmoqda, ikkinchi tomondan esa, ekstremizm, terrorizm va xavfsizlik bilan bog‘liq tahdidlar Hindiston

tashqi siyosatida ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qilmoqda. Mazkur sharoitda Hindistonning “Tolibon”ga nisbatan olib borayotgan siyosati pragmatik va murakkab xarakterga ega bo‘lib, u diplomatik muloqot, mintaqaviy hamkorlik hamda xavfsizlikni ta’minlash kabi omillar bilan belgilanmoqda. Hindistonning Afg‘onistonda inklyuziv hukumatni tashkil etilishini qo‘llab quvvatlashi ham bevosita mamlakatda yuzaga kelgan o‘tkir muammolarni hal etilishi bilan bog‘liq. Umuman, Nyu-Dehlining Afg‘onistondagi vaziyatdan jiddiy hadiksirashining quyidagi sabablari bilan izohlash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Birinchidan, terrorizm va ekstremizm xavfi Nyu-Dehli uchun jiddiy xavotirga sabab bo‘ladi. Bu borada professor Joshi Nirmala Hindistonning quyidagicha yozadi: “Hindistonning manfaati Afg‘onistonni diniy ekstremizm va terrorizm markazi sifatida qabul qilmaslikdan iborat. Biroq rasmiy jihatdan Hindiston “Tolibon” harakatini Pokiston bilan yaqin aloqaga kirishishi, ularning fundamentalistik kelishuvi hamda Jammu va Kashmir harbiy amaliyotlarida afg‘on yollanma askarlarining keng jalb qilinishidan tashvishlanadi”. Darhaqiqat, “toliblar”ning hokimiyatni qayta qo‘lga olishi bilan xavf yanada ortdi. Qo‘shma Shtatlar hukumatining ma’lumotlarga ko‘ra ““Tolibon” “al-Qoida” a’zolarini qabul qilishda va boshpana berishda davom etdi va bu shaxslar terrorizmga faol ishtirok etmayotganini da’vo qildi. BMTning 2679-rezolyutsiyaga (2023) muvofiq Afg‘oniston bo‘yicha mustaqil baholashiga ko‘ra, “Tolibon” shuningdek, Afg‘oniston tuprog‘ida faol bo‘lgan “Tahrik-e-Tolibon Pokiston” (TTP) a’zolariga ham ruxsat bergan” . Darhaqiqat, bu borada siyosiy fanlar doktori, dotsent S.Bo‘ronov ham o‘zining doktorlik dissertatsiyasida quyidagicha fikr bildiradi. “Hindistonning manfaati Afg‘onistonni diniy ekstremizm va terrorizm markazi sifatida qabul qilmaslikdan iborat. Biroq, rasmiy jihatdan Hindiston “Tolibon” harakatini Pokiston bilan yaqin aloqaga kirishishi, ularning fundamentalistik kelishuvi hamda Jammu va Kashmir harbiy amaliyotlarida afg‘on yollanma askarlarining keng jalb qilinishidan tashvishlanadi”. Kashmir jangchilari uchun Afg‘oniston hududidan lager maydoni sifatida foydalanish Pokiston armiyasiga Hindistonga qarshi mintaqadagi o‘z pozitsiyasini muvozanatlashtirishga yordam berardi. Pokistondagi manbalarga qaraganda, o‘tgan besh yil ichida (1995-2000) 60 mingdan 80 minggacha pokistonlik fuqarolar Afg‘onistonda tayyorgarlikdan o‘tib, o‘z uyiga qaytgan. O‘z navbatida, Pokistonda yadro qurolining ishlab chiqilishi va “Tolibon”ni o‘z nazorati ostiga olish harakatlari Eronning sharqiy chegarasi xavfsizligiga ham sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Qolaversa, Markaziy Osiyo bozorini Afg‘oniston orqali “zabt etish” Islomobodning Hindiston va Eron tomonidan mintaqada amalga oshirilishi rejalashtirilgan geoiqtisodiy loyihalarga muqobil hisoblangan transport-logistika, energetika va boshqa turli loyihalarni ishlab chiqish uchun katta ustunlik taqdim etar edi.

Ikkinchidan, “Tolibon” tashkil topishida Islomobod kuchli ta’sir o’tkazganligi sababli Hindiston doimo “toliblar”ni Pokiston ta’siridagi guruh sifatida munosabatda bo‘lib kelgan. Chunki, Pokiston siyosatchilari nazdida “Tolibon”ning Kobul siyosiy sahnasiga qaytib kelishi Hindistonning mintaqadagi ta’sirini tiyib turish uchun jiddiy vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin edi. Pokistonlik professor Ahmad Hasan Doniyning ishonch bildirishicha, “toliblar” Pokistondagi diniy madrasalarda tahsil olib, yosh o‘quvchilar islomning axloqiy qoidalariga rioya etmayotganlarga qarshi “jihod” olib borish uchun tayyorlangan . Shu sababdan, Hindiston “Tolibon”ni Pokiston uchun vakillik urushi olib borayotgan va Hindistonning Afg‘onistondagi strategik maqsadini nishonga oluvchi guruh deb hisoblab kelgan. Masalan, 2008-yil 8-iyulda Afg‘onistondagi Hindiston elchixonasi oldida avtomobil portlatilishi oqibatida Mehta ismli hind fuqarosi halok bo‘ladi. E’tiborga molik jihat shuki, portlashni uyushtirishdan maqsad ham aynan hind fuqarosini jismonan yo‘q qilish bo‘lgan. Xuddi shunday, 2009-yil 8-oktyabrda Kobuldagi Hindiston elchixonasiga qurolli hujum uyushtirildi, natijada 17 kishi halok bo‘ldi va 63 kishi jarohat oldi. 2010-yil 26-fevralda Kobuldagi asosan hind shifokorlari va muhandislari joylashgan mehmonxonaga hujum uyushtirildi, natijada 36 kishi, jumladan, 18 nafar hindistonlik jarohat oldi . Darhaqiqat, shu kabi to‘qnashuvlar, terroristik hujumlar Hindistonning “toliblar”ga nisbatan keskin siyosat olib borishga sabab bo‘ldi. Biroq, “Tolibon” hokimiyatni qayta egallaganidan so‘ng Nyu-Dehlining “Tolibon 2.0” ga nisbatan siyosati mo‘tadillashganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Hindiston “Tolibon” bilan asta-sekin aloqaga kirishni xohlamoqda, ammo bu borada juda ehtiyotkorona siyosat olib bormoqda.

Tadqiqotchi Sonia Sarkarning ta’kidlashicha, Hindiston hukumatining “Tolibon 2.0” hukumatiga nisbatan strategiyasi o‘zgarishni boshdan kechirmoqda. Nyu-Dehlining Pokiston bilan munosabatlarining yomonlashishi bunga turtki bermoqda va bu Hindistonning plyuralistik obro‘yiga putur yetkazadi , deb ta’kidlaydi.

Uchinchidan, Nyu-Dehlining “Tolibon 2.0” bilan munosabatlarida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihatlardan yana biri – bu Hindistonning “toliblar” masalasida xalqaro tashkilotlari doirasida faoliyat olib borish hamda uchinchi tomonning ham ishtirokiga urg‘u berayotganligidir. Xususan, Hindiston 2023-yil 5-fevralda Moskvada Rossiya tomonidan mezbonlik qilingan Afg‘oniston bo‘yicha ko‘p tomonlama uchrashuvda ishtirok etdi. Ushbu uchrashuvda Hindiston vakili Hindiston barqaror, xavfsiz va tinch Afg‘onistonni xohlashini bildirdi va mintaqaviy davlatlarni Afg‘onistondan ko‘tarilayotgan ISHID, “Al-Qoida” va boshqa terroristik guruhlariga qarshi xavfsizlik va razvedka sohasida hamkorlikni o‘rnatishga chaqirdi. Xuddi shunday, Hindiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Afg‘oniston bo‘yicha uchrashuvida mintaqaviy

davlatlar bilan muvofiqlashtirishda umumiy pozitsiyaga ega bo'lishga harakat qildi . Bu sa'y-harakatlarning barchasidan ko'rinib turibdiki, Hindiston "Tolibon 2.0"ga nisbatan mintaqaviy siyosat yuritishga harakat qilmoqda va "toliblar" bilan rasmiy munosabatlarni bevosita mustahkamlash va u bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoqda. So'nggi vaqtlarda "Tahrek-e Tolibon Pokiston" sababli Pokiston va "Tolibon" o'rtasidagi ziddiyat ko'lami shu qadar kuchaydiki, bu holat Hindistonning "Tolibon"ga nisbatan qarashlari va yondashuvlarini o'zgartirib, yangi strategiya ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi. Shu jihatdan, Nyu Deli "Tolibon" bilan tegishli aloqalarni o'rnatishga va shu orqali Pokistonga qarshi de facto "Tolibon" hukumatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni boshladi. Dastlab "Tolibon 2.0" hukumatining xatti-harakatlarini kuzatish pozitsiyasini egallagan Hindiston tomoni 2022-yildan boshlab "Tolibon" bilan muloqot qilish uchun o'z delegatsiyasini Kobulga yubordi. Unda Hindiston Afg'onistondagi sobiq hukumat davrida rejalashtirilgan yirik loyihalarni qayta boshlash masalalari muhokama etildi. 2024-yil noyabr oyida esa Hindistonning Afg'oniston, Pokiston va Eron bo'yicha maxsus vakili J.P.Singh boshchiligidagi delegatsiyaning Afg'onistonga tashrif buyurishi va "Tolibon 2.0" hukumati Tashqi ishlar vaziri Amirxon Muttaqiy hamda Mudofaa vaziri Mulla Ya'qub bilan bevosita uchrashishi Nyu-Delining Afg'onistonga nisbatan qarashlaridagi strategik o'zgarishlar mahsuli sifatida baholashga asos bo'ladi. Uchrashuvda "Tolibon" vakillari Afg'oniston hududidan Hindistonga biror-bir tahdid bo'lmasligi, tomonlar xavfsizlik masalasida hamkorlik qilishi haqida kelishib olindi.

Qayd etish lozimki, hozirgi real voqeelik sharoitida "Tolibon" omili Hindiston uchun strategik imkoniyat manbasi sifatida qaralmoqda. Buni ba'zi hollarda Nyu-Dehli tomonidan "Tolibon" bilan hamkorlikda garchi Hindiston uchun begona bo'lgan ayrim masalalarga oshkorona ko'z yumayotganligidan bilib olish mumkin. Masalan, 2025-yil oktyabr oyida Afg'oniston Muvaqqat hukumati Tashqi ishlar vaziri Amir Xon Muttaqiy Hindiston poytaxti Nyu-Dehlida matbuot anjumani o'tkazdi. Biroq, anjumanga ayol jurnalistlar taklif qilinmadi. E'tirozlardan so'ng, "Tolibon" delegatsiyasining navbatdagi yig'ilishida ayollarga ishtirok etishga ruxsat berildi. Jurnalistlar rejim rahbarlarini Afg'onistonda ayollar huquqlarini bostirish va 2021-yilda hind jurnalisti Danish Siddiqiyning o'ldirilishi bilan bog'liq tanqid qilishdi. Biroq, Hindiston tashqi ishlar vazirligi "Tolibon"ning Hindiston hududida ayol jurnalistlarni qo'pollik bilan rad etishiga jimgina munosabatda bo'lgani diqqatga sazovordir. Keyinchalik e'lon qilingan rasmiy qo'shma bayonotda ham "Tolibon"ning ayollar huquqlarini himoya qilish majburiyati haqida hech qanday ma'lumot berilmagan .

Markaziy Osiyo mintaqasi bilan hamkorlik. Nyu-Dehli-Islomobod o'rtasidagi raqobat natijasida uzoq yillardan beri Pokiston Hindistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan bog'liq strategik, iqtisodiy va madaniy aloqalariga tabiiy to'siqni yuzaga keltirib kelmoqda. Natijada, Nyu-Dehli uglevodorodlarga boy va strategik jihatdan muhim Markaziy Osiyo bilan aloqa o'rnatishning boshqa variantlarini ko'rib chiqdi. 2015-yilda Nyu-Dehli Siston-Balujiston viloyatidagi Chobahar portini rivojlantirish bo'yicha Eron bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzoladi. Port 2018-yilda qisman ishga tushirildi. Shunisi e'tiborga loyiqki, Eron va G'arb o'rtasidagi keskinlik kuchaygan bir paytda, Hindiston Chabahar porti loyihasi bo'yicha ishlarni davom ettirish uchun AQShdan maxsus imtiyoz oldi, byudjet mablag'lari 2019-20 -yillardagi 450 million rupiyadan 2020-21-yillarda 1000 million rupiyagacha oshirildi. Afg'oniston Chobahar porti loyihasining muhim qismi bo'lib, Hindiston va Markaziy Osiyo davlatlari buni jismoniy aloqa uchun o'yin qoidalarini o'zgartiruvchi omil sifatida ko'rishadi. Nyu-Dehli Afg'onistonni Erondagi Milak orqali Chabahar porti bilan bog'laydigan 218 km uzunlikdagi Zaranj-Dilorom avtomagistraliga 150 million AQSh dollari sarmoya kiritdi. Zaranj-Dilorom avtomagistrali Afg'oniston halqa yo'lining 2000 km qismini bog'laydi va 16 viloyatni (shu jumladan Hirot, Mozori-Sharif, Kobul, G'azni va Qandahor) Tojikiston bilan bog'laydi.

Xulosa. Hindistonning hozirgi davrdagi Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosiy strategiyasi xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy va infratuzilmaviy hamkorlikni davom ettirish, mintaqaviy geosiyosiy muvozanatni saqlash hamda gumanitar aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. Hindiston bu siyosat orqali nafaqat Afg'onistonda barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, balki Janubiy va Markaziy Osiyoda o'z geosiyosiy ta'sirini mustahkamlashga intilmoqda. Shuningdek, Nyu-Dehlining "Tolibon 2.0" bilan munosabatlarining rivoji Pokiston-Afg'oniston o'rtasidagi aloqalarning holatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda Islomobod va Kobul o'rtasida davom etayotgan qarama-qarshilik Hindiston uchun manfaatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сатановский, Е. (2017). Ближний Восток. Между войной и возможным миром. <https://centrasia.org/news.php>
2. Kabir Taneja. (2023). Chasing an 'inclusive government' in Taliban's Afghanistan. <https://www.orfonline.org/expert-speak/chasing-an-inclusive-government-in-talibans-afghanistan>
3. Бўронов С. Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати. – Т.: "EFFECT-D". 2021. – Б.135.

4. USA. Country Reports on Terrorism 2023: Afghanistan. <https://www.state.gov/reports/country-reports-on-terrorism-2023/afghanistan>
5. Бўронов С.М. Толибон: Марказий Осиёда минтақавий хавфсизлик истиқболи. – Тошкент, 2026. – С.49.
6. Matinuddin Kamal. The Taliban phenomenon: Afghanistan 1994-1997. – New York. Oxford University Press, 1999. – P.22.
7. Foreign policy in India under the Islamic Emirate. <https://csrsaf.org/%d9%86%da%ab%d8%a7%d9%87%db%8c-%d>
8. India has a new friend: the Taliban. (2025). <https://theloop.ecpr.eu/india-has-a-new-friend-the-taliban/>
9. Foreign policy in India under the Islamic Emirate. <https://csrsaf.org/%d9%86%da%ab%d8%a7%d9%87%db%8c-%d>
10. India has a new friend: the Taliban. (2025). <https://theloop.ecpr.eu/india-has-a-new-friend-the-taliban/>
11. Ayjaz Wani. Taliban's Afghanistan: An Emerging Security Challenge for India and Central Asia. <https://www.orfonline.org/research/taliban-s-afghanistan-an-emerging-security-challenge-for-india-and-central-asia>.